

AHOLI BANDLIGIGA KO'MAKLASHISHGA VA IQTISODIY O'SISHIDA TIJORAT BANKLARINING ROLI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)

*Baxtiyorov Boboyor Shuhrat o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya
Akademiyasi 2-kurs tингловчиси*

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholining ijtimoiy farovonligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda tijorat banklarining o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi, balki ish o'rinnari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy faoliyikni oshirish orqali aholi bandligini ta'minlashga ham bevosita hissa qo'shmoqda. Xususan, "Turonbank" ATB faoliyatining tahlili orqali tijorat banklarining mazkur sohalardagi real ta'sirini aniqlash mumkin.

Tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanch institutlaridan biri hisoblanadi. Ular sarmoyalarni jalb qilish, korxonalarini moliyalashtirish, aholiga kredit berish, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlariga kreditlar ajratish orqali ularning faoliyatini kengaytirish va yangi ish o'rinnarini yaratish imkoniyatlari yaratiladi.

Bandlik – bu ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim mezonlaridan biri. Tijorat banklari ushbu sohada kreditlash siyosati, moliyaviy ko'mak dasturlari va investitsion loyihalar orqali faol ishtirok etmoqda. Yangi ish o'rinnarini yaratish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish orqali banklar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qilmoqda.

"Turonbank" ATB tijorat banki sifatida iqtisodiyotning turli sohalariga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bank faoliyati doirasida kichik biznesni kreditlash, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini moliyalashtirish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyatga ega. Bank tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar va davlat dasturlari doirasidagi moliyaviy yordamlar orqali minglab ish o'rinnari yaratilgan.

Masalan, "Yoshlar – kelajagimiz", "Ayollar daftari", "Har bir oila – tadbirkor" kabi davlat dasturlari doirasida "Turonbank" orqali ajratilgan kreditlar yangi biznes subyektlarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida aholi bandligini oshirish va daromad manbalarini ko'paytirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Muammolar va takliflar:

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish zarur:

- Kredit olish jarayonlarini soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

- Kichik biznes vakillariga moliyaviy savodxonlik bo'yicha maslahat xizmatlarini kengaytirish;
- Mahalliy loyihalarni moliyalashtirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlar yaratish;
- Bank xizmatlarini hududiy jihatdan kengaytirish orqali chekka hududlarda ham bandlikni rag'batlantirish.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari iqtisodiy o'sish va bandlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bank sektorini iqtisodiyotning drayveri sifatida qaramoqda va bu orqali ishsizlikni kamaytirishga, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda.

AQShda tijorat banklari kichik biznesni moliyalashtirish orqali ish o'rinalarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. "Small Business Administration" (SBA) dasturi orqali banklar kichik korxonalarga kafillik asosida kredit ajratadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQShdagi yangi ish o'rinalining 60 foizdan ortig'i aynan kichik biznes subyektlari hisobiga yaratilgan. Bu esa tijorat banklarining iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Germaniyada "KfW Bankengruppe" nomli davlat qo'llovidagi tijorat banki kichik va o'rta korxonalarini uzoq muddatli, past foizli kreditlar bilan ta'minlaydi. Ushbu model bank sektorining ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. KfW orqali moliyalashtirilgan loyihalar ish o'rinalari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Janubiy Koreyada tijorat banklari hukumat dasturlari bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. "Industrial Bank of Korea" va "Korea Development Bank" singari moliya institutlari startaplar, innovatsion texnologiyalar va ishlab chiqarishni moliyalashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ular ayniqsa yoshlarga va texnologik yangiliklarga asoslangan bizneslarga ustuvor kredit ajratadi.

Xitoyda tijorat banklari davlat strategiyasiga muvofiq harakat qilib, qishloq hududlarda bandlikni oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. "Agricultural Bank of China" va "China Development Bank" orqali minglab yangi loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu banklarning faoliyati natijasida ishsizlik darjasini kamaygan va ichki bozor kuchaygan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari iqtisodiy o'sish va bandlik siyosatining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ularning samarali faoliyati davlat strategiyasi bilan uyg'un bo'lishi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi va hududiy rivojlanishga xizmat qilishi zarur. O'zbekiston ham bu yo'nalishda ijobjiy tajribalarni o'rganib, o'z bank sektorini global standartlarga yaqinlashtirishi mumkin.

Tijorat banklari, xususan "Turonbank" ATB, nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali, balki aholi bandligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga katta hissa qo'shamoqda. Ularning bu boradagi roli yanada

kuchaytirilsa, barqaror iqtisodiy rivojlanish va fuqarolarning turmush darajasini oshirishga zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Abdukarimov K.K. (2020). *Bank ishi asoslari*. T.: IQTISOD-MOLIYA.
3. Karimov I.A. (2007). *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. T.: Ma’naviyat.
4. Samig‘in I.F., Taranov P.V. (2018). *Kreditovoe delo*. M.: INFRA-M.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – <https://www.cbu.uz>
6. “Turonbank” ATB rasmiy sayti – <https://www.turonbank.uz>
7. World Bank (2021). *Financial Inclusion and Employment Report*. <https://www.worldbank.org>